

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

MAMAYUNUSOVA MEHRANGIZ OLIMOVNA

**INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH
SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH YO'LLARI**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in Economics Sciences**

Mamayunusova Mehrangiz Olimovna

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish yo‘llari 3

Мамаюнусова Мехрангиз Олимовна

Пути сокращения бедности путём развития сферы обслуживания в условиях инновационной экономики..... 27

Mamayunusova Mehrangiz Olimovna

Ways to reduce poverty through the development of the service sector in the context of an innovative economy 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

MAMAYUNUSOVA MEHRANGIZ OLIMOVNA

**INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH
SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISH YO‘LLARI**

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va inovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Iqt1575 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sies.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Po'latov Muxiddin Egamberdiyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Muhammedov Murod Muhammedovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Alieva Maxbuba Toychiyevna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.12.2024.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-18-84; faks: (99866) 233-28-38; e-mail: sies_info@edi.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-37-76. e-mail: sies_info@edi.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.X.Aslanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, o'rinbosari i.f.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

M.M.Muxammedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi kunda jahon iqtisodiyoti jadallik bilan rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Ushbu jarayonda iqtisodiy taraqqiyotning turli shakllari va omillari shakllanib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, modernizatsiya, diversifikatsiya, innovatsiyalar, raqamlashtirish, sun‘iy intellekt, kreativ iqtisodiyot va xulq-atvor iqtisodiyoti kabi yo‘nalishlar iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillari sifatida e‘tirof etilmoqda. Bundan tashqari, har bir sohaning erkin rivojlanishini ta‘minlash hamda mavjud muammolarni samarali hal etish maqsadida tegishli chora-tadbirlar ko‘rish zarur. Chunki “bugungi kunda dunyo aholisining 16 foizi yoki 1,3 milliardga yaqin inson to‘yib ovqatlanish imkoniyatidan mahrum bo‘lib, ularning aksariyati ocharchilikdan aziyat chekmoqda”¹. Bu esa mazkur masalalarning global miqyosda dolzarb muammolardan biriga aylanganini ko‘rsatadi. Hozirgi davrda iqtisodiy integratsiya jarayonlari jadallashib, xalqaro raqobat tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda hech bir mamlakat global taraqqiyotdan ortda qolishi mumkin emas. Shu sababli O‘zbekiston iqtisodiyotida ham yuqorida qayd etilgan omillarning jadal rivojlanib borayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bilan chambarchas bog‘liq ekani tobora ayon bo‘lib bormoqda.

Jahonda amaliyot tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, har qanday mamlakat va undagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy taraqqiyoti, eng avvalo, innovatsion g‘oyalarning amaliyotga samarali tatbiq etilishiga bog‘liqdir. Innovatsiyalar fan va texnika yutuqlari sifatida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, moddiy-texnik bazani takomillashtirish, ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish) sohaslarini diversifikatsiya qilish, iqtisodiy-ijtimoiy hayotga ilg‘or g‘oyalarni tatbiq etish kabi jarayonlarning asosiy omili hisoblanadi. Shuningdek, innovatsiyalar iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar mehnatini oddiy jismoniy faoliyatdan aqliy mehnatga o‘tkazishda, mamlakat va hududlarning raqobatbardoshligini oshirishda, aholining kam ta‘minlangan qatlamini qisqartirish hamda ularning yashash darajasi va sifatini yuksaltirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan, jahon iqtisodiyotida ham innovatsiyalarning ahamiyati yildan-yilga ortib borayotgan bo‘lib, ularni keng miqyosda tatbiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi oshib bormoqda. 2024- yil yakunlariga ko‘ra, YaIM tarkibida katta bo‘lmagan o‘zgarishlar kuzatildi. 2023- yilga nisbatan YaIM (YaQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 46,2 % dan 47,4 % ga, sanoatning ulushi 25,3 % dan 26,4 % ga oshdi². Hozirgi vaqtda mamlakatimiz iqtisodiyoti ko‘p jihatdan xorijiy texnologiyalar va chet el investitsiyalarini jalb qilish hisobiga

¹Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусовна Пардаева. Глобаллашув жараёнида дунё аҳолисининг таркибий тузилиши ва ўзгариш жараёнлари. // “Сервис” илмий-амалий журнал 2022 йил 3-сони. – 3-11 бетлар.

² <https://uzdaily.uz/uzc/2024-yilda-o%CA%BBzbekiston-yalpi-ichki-mahsuloti-11496-milliard-dollarini-tashkil-qildi/>

rivojlanmoqda. Biroq kelajakda iqtisodiyotni mahalliy innovatsion omillar asosida rivojlantirish dolzarb masalaga aylanadi. Buning uchun yetarli ilmiy va intellektual salohiyat shakllantirilishi zarur. Ichki imkoniyatlar to'liq ishga solinganda, hududiy yalpi mahsulotning sezilarli qismi ham innovatsion jarayonlar hisobiga yaratilishi mumkin bo'ladi. Shuningdek, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi mehnat bozoridagi talabni oshirishga, aholining bandligini ta'minlashga va natijada kambag'allikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu boisdan innovatsiyalarni har bir iqtisodiy sohada keng joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son "2019—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 23-sentyabrda PF-143-son "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi Farmonlari, 2008-yil 15-iyuldagi PQ-916-son "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 26-martdagi PQ-4653-son "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari hamda tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotini o'nglash va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan g'oyalar S.Q.Kutler, M.Santeiro, N.Somerio, A.Avila-Robinson, A.G.Asmelash, R.Doran, S.Y.Lyu, V.P.Ponse, S.Rozman, Yu.A. Vedenin, E.I. Bogdanova, Y.A.Xudenkix, A.N.Dunets, K.V. Krujaln, V.A. Rubsov, M.V. Gudkovskix, S.Y.Gataullinava boshqa mutaxassislar³ tomonidan ilmiy yondashuvlar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

³ Cutler, S.Q., Doherty, S. & Carmichael, B. (2018). The experience sampling method: examining its use and potential in tourist experience research. *Current Issues in Tourism*, 21(9), pp. 1052-1074. DOI: 10.1080/13683500.2015.1131670; Canteiro, M., Cordova-Tapia, F. & Brazeiroc, A. (2018). Tourism impact assessment: A tool to evaluate the environmental impacts of touristic activities in Natural Protected Areas. *Tourism Management Perspectives*, 28, pp. 220-227; Comerio, N. & Strozzini, F. (2019). Tourism and its economic impact: A literature review using bibliometric tools. *Tourism Economics*, 25 (1), pp. 109-131. DOI: 10.1177/1354816618793762; Avila-Robinson, A. & Wakabayashi, N. (2018). Changes in the structures and directions of destination management and marketing research: A bibliometric mapping study, 2005-2016. *Journal of Destination Marketing & Management*, 10, pp. 101-111; Asmelash, A. G. & Kumar, S. (2019). Assessing progress of tourism sustainability: Developing and validating sustain-ability indicators. *Tourism Management*, 71, pp. 67-83; Doran, R. & Hanss D. (2019). Socially desirable responding: the case of self-reported values in tourism surveys.

Ushbu muammolarni o'rganishga mamlakatimiz olimlaridan Q.X.Abdurahmanov, N.T.To'xliyev, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, O.M.Pardayev, O.H.Xamidov, A.N.Norchayev, A.T.Mirzayev, N.S.Ibragimov, B.H.To'rayev, I.A.Axmedov va boshqalarning⁴ ilmiy izlanish va asarlarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari muhim masalalar tadqiq etilgan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning asarlarida innovatsiyaga oid masalalarning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari umumiy tarzda yoritilgan. Ammo innovatsion rivojlanish sharoitida kambag'allikni tugatishning muammolari kam o'rganilgan va mos ravishda iqtisodiy adabiyotlarda ham kam yoritilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining SamISI-18/1 "Iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish bilan bog'liq istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishning nazariy masalalarini qarab chiqish;

kambag'allikning mazmun-mohiyati va uni qisqartirishning obyektiv zaruriyat ekanligi asoslash;

xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

Current Issues in Tourism, 22 (2), pp. 127-132.; Ponce, W. P. P., Perez, J. F. R. & Hernandez, I. P. (2019). Sustainable tourism assessment based on expert criteria on the coasts of Manabi, Ecuador. *Avances*, 21 (1), pp. 59-78; Lu, C. Y., Pang, M., Yang, J. Q. & Wang, D. (2018). Research on Interactions between the Economy and Environment in Tourism Development: Case of Qingyang, China. *Sustainability*, 10 (11), pp. 312-332; Rozman, C., Potocnik, M., Pazeck, K., Borec, A., Majkovic, D. & Bohanec, M. (2009). A multi-criteria assessment of tourist farm service quality. *Tourism Management*, 30 (5), pp. 629-637.

⁴Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013. -248 с.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: Гос. Науч. Изд. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. -386 с.; Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. -Samarqand: SamISI, 2006. – 137 b.; Tuxliev I. Turizm asoslari. Samarqand: SamISI. 2015. – 271 b.; Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida). DSc. Dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019.-246 b.; B.Sh. Safarov Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari. //Monografiya. -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2016. –148 b.; Pardayev O.M. Menejment. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019. –248 b.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari: iqt.fan.dok. diss. avtoref. – S.: SamISI, 2019. -77 b.; Hamidov O.H., Norchayev A.N. Ekoturizm. — Darslik. — T.: TDIU, 2011. -138 b.; Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. DSc. Dissertatsiya avtoreferati-Toshkent. 2021.; Mirzaev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. DSc. diss. avtoref. – Toshkent, 2021. –.68 b.; Ibragimov N.S., Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // Buxoro: Durdona nashriyoti 2020. – 204 b.; Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма: -док.дисс. автореф., 2011.– 38 с.; М.М.Ирматов, I.A.Axmedov.Turizm rivojlanishini rejalashtirish. O'quv qo'llanma. TDIU, 2004. -132 b.

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlarning holatini o'rganish;

xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning holati va uning aholi hayot darajasi va sifatiga ta'siriga baho berish;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar va ularni rivojlantirishning qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining aholi kambag'alligini qisqartirish bilan bog'liq jihatlari ochib beriladi;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish istiqbollari yo'nalishlarini ishlab chiqish;

xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion omillar evaziga rivojlantirish istiqbollarini belgilash yo'llari;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning 7R modelidan foydalanish yo'llarini asoslash;

xizmat ko'rsatish sohasida aholining o'zini-o'zi ish bilan band qilish orqali kambag'allikni qisqartirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda hududlar aholisining kam ta'minlangan kambag'al qatlami hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish yo'llari ishlab chiqish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada abstrakt-mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya, ijtimoiy so'rovnoma, iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish kabi baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida xizmat ko'rsatish sohasining ulushini 47 foizga yetkazish orqali kambag'allikni qisqartirish strategik yo'nalishida yangi avlod innovatsion mahsulotlarini yaratish orqali hududiy rivojlanishni jadallashtirish, xizmat ko'rsatish sektorida yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda aholi farovonligini oshirish maqsadida "YAG'R 3I" modelini mahallalarga joriy etish bo'yicha takliflar asoslangan;

hududlarda barcha subyektlarning o'zaro hamkorlikda ishlashi kambag'allikni qisqartirish jarayonini tezlashtirish maqsadida ilm-fan, texnologiya va biznes integratsiyasi orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda, mahalliy iqtisodiy resurslardan to'liq foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholining ish bilan bandligini oshirish va kambag'allik darajasini pasaytirish uchun davlat, biznes, jamiyat va ilmiy doiralarning birgalikda harakat qilishini rag'batlantirish asosida to'rtta asosiy subyekt (Governance – G1, Growth – G2, Society – G3, Science – G4) guruhini integratsiyalashgan faoliyatini yo'lga qo'yish orqali samarali natijalarga erishishga qaratilgan "4GS modeli" bo'yicha takliflar asoslangan;

moliyaviy barqarorlikni oshirish, oilaviy byudjetni optimallashtirish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashga xizmat qiladigan yondashuv asosida oila daromadlarining tizimli boshqaruvi orqali “Xotirjamlik jamg‘armasi”ni shakllantirish hamda ushbu mexanizmni samarali tatbiq etish orqali kambag‘allikni qisqartirishga yo‘naltirilgan ichki iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlar afzaliklari dalillangan;

hududlar xizmat ko‘rsatish tarmog‘ida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash orqali bandlik darajasini oshirishga qaratilgan tizimli mexanizmlarni o‘z ichiga oladigan “7I3F modeli” asosida kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlarining “Ketma-ketlik zanjiri” modelini joriy etish bo‘yicha takliflar asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishning nazariy masalalarini qarab chiqilgan bo‘lib, ushbu jarayon bilan bog‘liq tushunchalarning ta‘riflari takomillashtirilgan;

xizmat ko‘rsatish sohasida aholining o‘zini-o‘zi ish bilan band qilish orqali kambag‘allikni qisqartirishning strategik yo‘nalishlari ishlab chiqilgan;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning 7R modelidan foydalanish natijasida kambag‘allikni qisqartirish yo‘llari takomillashtirilgan;

kambag‘allikning mazmun-mohiyati va uni qisqartirishning obyektiv zaruriyat ekanligi mamlakatimiz uchun o‘ta muhimligidan kelib chiqib, uni qisqartirishning ichki imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi; ma‘lumotlarning rasmiy manbalar orqali, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining statistik ma‘lumotlari va davriy hisobotlaridan olinganligi; keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika usullari vositasida asoslanganligi; xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasining aholi kambag‘alligini qisqartirish bilan bog‘liq strategik yo‘nalishlardan samarali foydalanish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar va takliflar xizmatlar sohasini yanada jadal rivojlantirish, ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha yangi innovatsion xizmatlarni kirib kelishiga, hududlar darajasida xizmat ko‘rsatish tarmoqlari, xususan, xizmatlarni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasining aholi kambag‘alligini qisqartirish bilan bog‘liq sohalarni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va mehnat vazirligi tasarrufidagi hududiy tuzilmalari faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi, shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish

yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining aholi kambag'alligini qisqartirish bilan bog'liq muammolarning yechimlari bo'yicha olingan bir qancha ilmiy natijalar amaliyotga joriy qilindi:

mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida xizmat ko'rsatish sohasining ulushini 47 foizga yetkazish orqali kambag'allikni qisqartirish strategik yo'nalishida yangi avlod innovatsion mahsulotlarini yaratish orqali hududiy rivojlanishni jadallashtirish, xizmat ko'rsatish sektorida yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda aholi farovonligini oshirish maqsadida "YAG'R 3I" modelini mahallalarga joriy etish bo'yicha asoslangan takliflari Samarqand viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasining 2024 yil 13 dekabrda 19/00-02/04-3597-son "Nazorat rejasiga" kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining 2024-yil 25-dekabrda № 06/53-2-26301-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mavjud kambag'allikka barham berish uchun mamlakatimizda kechiktirib bo'lmaydigan masalalar sirasiga kiritish mumkin bo'lgan tadbirlarni amalga oshirish vazifasi belgilandi. Bunga erishish uchun 11 ta strategik yo'nalishlarni amalga oshirish lozimligi asoslangan;

hududlarda barcha subyektlarning o'zaro hamkorlikda ishlashi kambag'allikni qisqartirish jarayonini tezlashtirish maqsadida ilm-fan, texnologiya va biznes integratsiyasi orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda, mahalliy iqtisodiy resurslardan to'liq foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholining ish bilan bandligini oshirish va kambag'allik darajasini pasaytirish uchun davlat, biznes, jamiyat va ilmiy doiralarning birgalikda harakat qilishini rag'batlantirish asosida to'rtta asosiy subyekt (Governance – G1, Growth – G2, Society – G3, Science – G4) guruhini integratsiyalashgan faoliyatini yo'lga qo'yish orqali samarali natijalarga erishishga qaratilgan "4GS modeli" bo'yicha asoslangan takliflar Samarqand viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasining 2024 yil 13 dekabrda 19/00-02/04-3597-son "Nazorat rejasiga" kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining 2024-yil 25-dekabrda № 06/53-2-26301-sonli ma'lumotnomasi). Natijada guruhlarga aholining kambag'al qatlami, mahalla va kambag'allik bilan shug'ullanadigan muassasalar, ta'lim sohasi va ish beruvchilar hamda mamlakat Prezidenti va davlat idoralari kiritilgan va ularni hamkorlikda mav'uliyat bilan faoliyat ko'rsatish lozimligi isbotlangan;

moliyaviy barqarorlikni oshirish, oilaviy byudjetni optimallashtirish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashga xizmat qiladigan yondashuv asosida oila daromadlarining tizimli boshqaruvi orqali "Xotirjamlik jamg'armasi"ni shakllantirish hamda ushbu mexanizmni samarali tatbiq etish orqali kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan ichki iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlar dalillangan afzaliklari Samarqand viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasining 2024 yil 13 dekabrda 19/00-02/04-3597-son "Nazorat rejasiga" kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining 2024-yil 25-dekabrda № 06/53-2-26301-sonli ma'lumotnomasi). Natijada oilaning

daromadi ish haqi va mulkni ishlatishdan olinadigan daromadlar asosidashakllanishi va undan tizimli ravishda har oyda oilaning xarajatlaridan orttirgan holda “Xotirjamlik jamg‘armasi”ga mablag‘ni qo‘yib borish tizimi ishlab chiqilgan;

hududlar xizmat ko‘rsatish tarmog‘ida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash orqali bandlik darajasini oshirishga qaratilgan tizimli mexanizmlarni o‘z ichiga oladigan “7I3F modeli” asosida kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlarining “Ketma-ketlik zanjiri” modelini joriy etish bo‘yicha asoslangan takliflari Samarqand viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasining 2024 yil 13 dekabrda 19/00-02/04-3597-son “Nazorat rejasiga” kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining 2024-yil 25-dekabrda № 06/53-2-26301-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada bularning o‘zaro bog‘liqligi kambag‘allikni qisqartirishga erishish imkonini berishi ham isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 5ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, 6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti ham tavsiflangan. Ishda tadqiqot jarayonida qo‘llaniladigan usullar, tadqiqotning ilmiy yangiliklari, amaliy natijalari erishilgan natijalarning ishonchliliga, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Aynan shu qismda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi va dissertatsiya tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ham ma‘lumotlar keltirilgan.


Ishning birinchi bobi **“Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishning nazariy masalalari”** qarab chiqilgan bo‘lib, innovatsion iqtisodiyot sharoitida kambag‘allik tushunchasining mazmun-mohiyati va uni tadqiq qilishning nazariy masalalari, mamlakatimizda kambag‘allik darajasini baholash va uni innovatsion iqtisodiyot sharoitida kamaytirish yo‘llari, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish

orqali kambag'allikni qisqartirishning strategik yo'nalishlari taqiq qilingan. Ushbu bob bo'yicha xulosalar ham keltirilgan.

Mazkur bobda obyektiv zaruriyatdan kelib chiqib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida xizmat ko'rsatish sohasining ulushini 47 foizga yetkazish orqali kambag'allikni qisqartirish strategik yo'nalishida yangi avlod innovatsion mahsulotlarini yaratish orqali hududiy rivojlanishni jadallashtirish, xizmat ko'rsatish sektorida yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda aholi farovonligini oshirish maqsadida "YAG'R 3I" modelini mahallalarga joriy etish bo'yicha takliflar asoslangan.

Aholining farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-4653-sonli Qarori qabul qinindi. Ushbu qaror va boshqa hujjatlarda belgilangan kambag'allikka barham berish uchun mamlakatimizda kechiktirib bo'lmaydigan masalalar sirasiga kiritish mumkin bo'lgan tadbirlarni amalga oshirish vazifasi belgilandi. Bunga erishish uchun quyidagi strategik yo'nalishlarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz. Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar juda ko'p ekan. Buni biz anglagan tadbirlarning bir qismi xalos. Chunki ushbu masalaga qanday yondoshilsa, o'sha yo'nalishda bir qancha imkoniyatlarni ham topish mumkin. Shunday qilib, tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish mumkinligi haqida bir qancha xulosalarga kelindi va takliflar ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini mukammal bajarish uchun bir qancha chora-tadbirlar va yangi yo'nalishdagi innovatsion tavsiyalar ham ishlab chiqildi. Bularni amalga oshirish uchun quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan 3 bosqichli bog'liqlik ketma-ketligi ishlab chiqildi. Bular quyidagilardan iborat (1-rasm).




1-rasm. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha axborotlarni shakllantirish va natijasini baholab, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga erishish bosqichlari

Ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqilgan 11 banddan iborat bo'lgan innovatsion tadbirlarni amalga oshirish uchun, uninghar bir bandini bajarish bo'yicha mutasaddini (ijrochini) topish lozim. Har bir ishni bajarishda ijrochi aniq bo'lsagina, ma'lum natijaga erishiladi. Har bir faoliyat va tadbirni bajarish va

amalga oshirish uchun mablagʻ kerak boʻladi. Shu tufayli tegishli mablagʻni va zarur sharoitni yaratish ham maqsadga muvofiq. Shuningdek, kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha tegishli axborotlarni shakllantirish va natijasini baholab, munosib boshqaruv qarorlarini qabul qilinadi. Buning uchun barcha yoʻnalishlarda malakali mutaxassislarning mavjudligini taqozo qiladi. Bular munosib ragʻbatlantirilsa, yangi gʻoyalar shakllanadi. Bu investitsiyani yaratadi va oqibatda innovatsion mahsulot ham paydo boʻladi.

Aynan shunday yondoshuvlar bilan innovatsion omillar imkoniyatlariga yoʻl ochiladi. Shu tariqa kambagʻallikni qisqartirishda innovatsion mahsulotni yaratishga yoʻnaltirilgan “YAGʻR 3I” modeli shakllanadi. Bu quyidagi rasmda keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Kambagʻallikni qisqartirishda innovatsion mahsulotni yaratishga yoʻnaltirilgan “YAGʻR 3I” modeli

Rasmdan koʻrinib turibdiki, innovatsion mahsulotni yaratishda va shu orqali kambagʻallikni qisqartirishda “YAGʻR 3I” modelining ketma-ketligi oʻz ichiga eng muhim elementlarni qamrab olgan. Jumladan, faoliyat koʻrsatayotgan xodimlarga yangi gʻoyalar uchun ragʻbatlantirish (YAGʻR) aniq boʻlsa, u albatta yangi gʻoyalarni oʻylab topadi. Buni amalga oshirish va innovatsiya (texnika, texnologiya va boshqa ilgʻor ashyolar) yaratish uchun investitsiya kerak boʻladi. Bu esa oʻz navbatida innovatsion mahsulotni yaratish imkoniyatini paydo qiladi. Bu esa oʻz navbatida maʼlum darajada kambagʻallikni qisqartirish imkoniyatini ham yaratadi. Chunki ushbu yoʻl bilan yangi ish oʻrinlari yaratiladi va bu ishsizlikni ham kamayishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish orqali kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha amalga oshirilgan tadbirlarning holati”** qarab chiqilgan. Ushbu bobda xizmat koʻrsatish sohasida oilaviy korxonalarda yangi ish oʻrinlarini yaratish va barcha kuchlarni safarbar qilish orqali kambagʻallikni qisqartirish masalalari, innovatsion iqtisodiyot sharoitida oila daromadlaridan “xotirjamlik jamgʻarmasini” tashkil qilish orqali kambagʻallikni qisqartirish imkoniyatlari, xizmat koʻrsatish sohasida koʻrilayotgan choralar va ulardan tomorqadan foydalanish orqali kambagʻallikni qisqartirish imkoniyatlari bilan bogʻliq masalalar qarab chiqilgan. Ushbu bob boʻyicha ham tegishli xulosalar qilingan.

Hozirgi sharoitida hududlarda barcha subyektlarning oʻzaro hamkorlikda ishlashi kambagʻallikni qisqartirish jarayonini tezlashtirish maqsadida ilm-fan, texnologiya va biznes integratsiyasi orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda,

mahalliy iqtisodiy resurslardan to'liq foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholining ish bilan bandligini oshirish va kambag'allik darajasini pasaytirish uchun davlat, biznes, jamiyat va ilmiy doiralarning birgalikda harakat qilishini rag'batlantirish asosida to'rtta asosiy subyekt (Governance – G1, Growth – G2, Society – G3, Science – G4) guruhini integratsiyalashgan faoliyatini yo'lga qo'yish orqali samarali natijalarga erishishga qaratilgan "4GS modeli" bo'yicha takliflar asoslangan.

Jahon miqyosida iqtisodiyotda, ijtimoiy va siyosiy hayotda murakkab jarayonlar sodir bo'lmoqda. Bunday sharoitda barqaror rivojlanishni ta'minlash va tinchlikni saqlab turish ham juda katta tashkilotchilikni talab qiladi. Bunday sharoitda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'li va unda erishilgan natijalarini chuqur tahlil qiladigan bo'lsak, keyingi yillarda ancha muvofaqiyatlar qo'lga kiritildi. Xususan, xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini zamon talabidan kelib chiqqan holda transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga erishildi. Shu bilan birga inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi ham amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bularning barchasini amalga oshirishda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida aniq maqsadlar ko'zda tutilgan.


Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra 37,2 mln nafarni tashkil etadi. Bulardan 15 mln 089 ming nafari (41%) iqtisodiy faol ya'ni, mehnat qilishga tayyor aholi hisoblanadi. Shundan, 14 mln 213 ming nafari (94 foizi) iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mehnat qilmoqda⁵. Bularning tarkibiy tuzilishiga e'tiborni qaratiladigan bo'lsa, quyidagi holatni ko'rish mumkin. Xususan: "rasmiy sektorda – 6,8 mln (48%); norasmiy sektorda – 5,5 mln (38,8%); xorijda ishlayotganlar – 1,9 mln (13,6%) kishini tashkil qiladi. Bugungi kunda respublika bo'yicha 876 ming nafar ishga joylashishga muhtoj aholi mavjud (yil boshida 1 024 ming nafari, -148 ming). Mehnatga layoqatli aholi o'rtasida ishsizlik darajasi yil boshiga nisbatan 1 foiz punktga yoki 6,8 foizdan 5,8 foizga kamaydi"⁶. Ko'rinib turibdiki, mehnat bozorida hal qilinishi lozim bo'lgan bir qancha masalalar mavjud.

Mehnat bozoridagi muammolarni hal qilinishi orqali aholini ish bilan band qilishga va mos ravishda, shu yo'l bilan kambag'al qatlamini qisqartirishga ham muvaffaq bo'linadi. Buning uchun aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari faoliyati samarali yo'lga qo'yilishi haqida ham mamlakatimiz rahbari bir qancha bor ta'kidlab kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida "Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib

⁵ <https://t.me/mehnatvazirligi/17776>.

⁶ <https://t.me/mehnatvazirligi/17776>

yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi"⁷, degan xulosani berdi. Ko'rinib turibdiki, kambag'allikni qisqartirish bitta tashkilotning yoki bir guruh odamlarning ishi emas. Balki bunga quyidan yuqorigacha va yuqoridan quyigacha o'zaro bog'liq holdagi tashkilotlar o'zaro bog'liq holda harakat qilishlari lozim. Ushbu obyektiv zaruriyatdan kelib chiqib, "4GS modeli"ni ilk bor ishlab chiqdik (3-rasm).



3-rasm. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kambag'allikni qisqartirishning "4GS modeli"ning tarkibiy tuzilishi

Rasmdan ko'rinib turibdiki, kambag'allikni qisqartirish uchun bevosita 4 guruh subyektlar shug'ullanadi. Bular quyidagilardan iborat:

Birinchi guruh, aholining kambag'al qatlami hisoblanadi. Chunki shu qatlama kiradigan aholi o'zi intilmasa, unga faqat berib, mahsulotlar va mablag'lar bilan ta'minlab kambag'allikdan chiqarib bo'lmaydi. Har bir kishi o'zi harakat qilmog'i lozim. Hozirgi paytda buning uchun mamlakatimizda katta imkoniyatlar yaratilgan. Hozir xohlagan kishi, xohlagan kasbida o'zini o'zi band qilish imkoniyatlariga ega. Undan foydalangan holda kambag'allikdan chiqish yo'llarini qilishi mumkin. Buning ko'makchisi bor. Birinchi galda hozirda ularning hisob-kitobini mahallalar olib boradi. Bu esa, o'zaro muloqat qilib, bir-biridan

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <http://lex.uz/ru/docs/3107036#3109146>

foydalangan holda kambag'allikdan chiqish choralarini ko'radilar. Zarur bo'lsa kredit bilan ham ta'minlab bormoqda.

Ikkinchi guruhga, bevosita mahalla va kambag'allik bilan shug'ullanuvchi muassasalar kiradi. Bunga bevosita ushbu masala bilan shug'ullanadigan "Mahalla yettiligi" va "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi" hamda ularning hududiy bo'linmalari kiradi. Bunda "Mahalla yettiligi" muhim rol o'ynadi. Ulatning asosiy maqsadi aholining farovonligini oshirishga, tinch va osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan. Bu vazifalar tarkibida kambag'allikdan chiqarish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan bir qancha farmon va qarorlari qabul qilindi. Bular jumlasiga davlatimiz rahbarining "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 12-iyundagi PF-91-son Farmoni hamda "Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 23-fevraldagi PQ-70-son qarori, shuningdek, hunarmandchilik va kasanachilikni rivojlantirish orqali ishsiz aholi, ayniqsa, xotin-qizlar, mehnatga layoqatli nogironligi bo'lgan shaxslarning ish bilan bandligiga ko'maklashish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan Vazirlar Mahkamasining 2023-yilning 22-iyulida "O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 307-sonli qarori qabul qilindi.

Uchinchi guruhga, ta'lim sohasi va ish beruvchilar hamda kasbga o'qitadigan Monomarkazlar faoliyatini kiritish mumkin. Kambag'allikni qisqartirishda bolalarni yoshligidan qiziqishlariga qarab o'qitish va tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bolalarni xoru-zor bo'lmasligi uchun o'qish lozimligini, bir qancha kasblarni o'rganib qo'yish kerakligini tushunib olishlari lozim. "Bir yigitga 40 hunar ham oz" degan maqolga amal qilib, ko'nikib yashashga o'rgatish kerak. Bolalarni kreativ fikrlashga, bir vaqtning o'zida muammoning bir qancha yechimlarini topish yo'llarini ham bilish kelajakda yashashda qiynalmaslik omili ekanligini bilib ulg'aysa, bunday aholidan kambag'allar chiqmaydi. Biz hozir o'qishni bitiramiz, kim ishga oladi, degan savol bilan emas, balki o'qishni birirgach o'zim qanday faoliyat bilan shug'ullansam, o'zim boy, mamlakatim boy bo'ladi, degan tushuncha bilan yashashga o'rgatishimiz lozim. Hozirgi paytda o'zimizda ish bo'lmasa, xorijga ketaman, degan tushuncha bilan yashayotgan yoshlarimiz ham oz emas. Bu tushuncha masalaning yechimi emas. Xorijga ishlashga borish kerak, faqat mardikorlikka emas, balki yuqori malakali kasbni egallab, munosib yashash uchun sharoit yaratish va mamlakatimizga boylik va xorijiy tajribalarni olib kelib, uni rivojlantiradigan bo'lishi lozim.

To'rtinchi guruhga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va boshqa davlat idoralarini kiritish mumkin. Bularga kiruvchi davlat tashkilotlari tarkibiga deyarli barcha vazirliklar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini ham kiradi. Ushbu tashkilotlar mazkur masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlarini ijrosini ta'minlash bo'yicha ijrochi

organ hisoblanadi. Prezidentimizning barcha farmon va qarorlari yuqoridan quyigacha ijrosi ta'minlanish choralari ko'rish lozim. Ayniqsa kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan strategik maqsadlar yuqori tashkilotlardan mahallagacha va mahallada ham bir oilagacha yetkazilishi lozim. Shundagina qabul qilingan farmon va qarorlarning ijrosi ta'minlanadi.

Kambag'allikni qisqartirishda moliyaviy barqarorlikni oshirish, oilaviy byudjetni optimallashtirish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashga xizmat qiladigan yondashuv asosida oila daromadlarining tizimli boshqaruvi orqali "Xotirjamlik jamg'armasi"ni shakllantirish hamda ushbu mexanizmni samarali tatbiq etish orqali kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan ichki iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlar afzaliklari dalillangan.

Kambag'allikni qisqartirish uchun oila daromadlaridan kelajakda favqulotda holatlar uchun "xotirjamlik jamg'armasini" tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu jamg'armaning mazmuni oilada xotirjamlikni ta'minlash uchun xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Ushbu jamg'arma miqdori ma'lum muddatga yetadigan mablag' darajasida shakllantiriladi. Odatda milliy urf-odatlarimiz bo'yicha favqulotdagi vaziyatlar uchun oila ehtiyojiga joriy davrda ishlatilmaydigan "qora kun uchun" degan zaxira bo'ladi. Bu zaxira birorta hodisa ro'y bersa zudlik bilan ishlatish uchun hamisha mavjud bo'lganligi uchun shunday nomlangan. Ammo qadriyatlarimizda hamma narsa niyatga bog'liq, degan tushuncha bor ekan. Agar qora kun uchun zaxira qilsak, shu niyat bilan to'plsak, uni albatta qora kunga ishlatishga to'g'ri kelib qolishi mumkin. Ammo inson hayotida hamisha qora kunlar bo'lmasligi tabiiy. Ammo zaxira har bir xonadonda xotirjamlik uchun kerak ekan.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, hozirgi bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot sharoitida raqobat keskinlashib borayotgan bir pallada shu oilaning boquvchisi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaga bankrotga uchrab o'z faoliyatini to'xtatishi mumkin. Albatta xodim yangi ish topib, ishga joylashguncha bir muncha vaqt kerak bo'ladi. Bunday sharoitda agar zaxirasi bo'lmasa, butun oilasi qiynalib qolishi tabiiy. Shu tufayli har bir oilada "Xotirjamlik jamg'armasi" bo'lishi kerak, degan xulosaga keldik.

Ushbu zaxiraning shakllanish mexanizmi oddiy. Har oyda topilgan daromadning ma'lum foizni shu jamg'armaga qo'yib boriladi. Odatda oilaning bir oylik xarajati ma'lum (ma'lum bo'lmasa aniqlanadi). Shunga asosan ushbu zaxira 6 oyga mo'ljallangan bo'lsa, bemalol shu muddat davomida oila boquvchisi ishidan bo'shab qolgan taqdirda ish topguncha shu 6 oy muddatda yashab turishi mumkin. Agar ushbu zaxira bir yilga mo'ljallangan bo'lsa, u ham shu davr mobaynida xotirjam yashashi mumkin. Shu tufayli mazkur jamg'armaning nomini oila uchun "Xotirjamlik jamg'armasi", deb nomlashni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Ma'lumki, hozirgi paytda kambag'allar kategoriyasi aniqlanib, ularning aniq ro'yxatlari shakllantirildi. Ular biror joyda oylik oladigan lavozimda ishlamaydi. Ularning ko'pchiligi faqat tomorqaga u-bu ekib kun ko'rishadi yoki mardikorhilik yo'li bilan kunlik daromad qilishadi. Bu yo'l bilan kun ko'rish mumkin, ammo kambag'allikdan chiqib ketishi qiyin. Bunday sharoitda kambag'allikdan chiqish

uchun bir oylik oila ehtiyoji aniqlanib olinadi. Endi oylik oladigan ishga kirib ish bilan band bo‘lib faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Bu oladigan oylik va boshqa qo‘shimcha daromadlari oilaning ehtiyojini ta‘minlab ozgina ortadigan bo‘lsa, shu oila kambag‘allikdan chiqqan bo‘ladi. Bularning o‘zaro bog‘liqliklarini quyidagi rasmda keltirish mumkin (4-rasm).

Oila daromadlari			=	Oila xarajatlari va xotirjamlik jamg‘armasi		
Ish haqi	+	Mulkni ishlatishdan va boshqa daromadlar	=	Oilaning turli xarajatlari	+	Xotirjamlik jamg‘armasi
4 200,0 ming so‘m	+	2 100,0 ming so‘m	6 300,0	4 500,0 ming so‘m		1800,0 ming so‘m

4-rasm. Oila daromadlari va xarajatlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda “Xotirjamlik jamg‘armasi”ni tashkil qilish imkoniyatlari

Xalqaro me‘yorlar bo‘yicha kunlik xarajat 1,9 AQSH dollaridan kam bo‘lmasligi kerak. Bugungi kunda (06.05.2022-yil) bir dollarning qiymati 11132,56 so‘mni tashkil qiladi. Demak bir kunda aholining minimal iste‘moli uchun 21152 so‘m mablag‘ (1,9*11132,56) bo‘lishi kerak. Agar oilada 4 kishi bo‘lsa, bir kunlik iste‘moli 84608 so‘mni (21152*4) tashkil qiladi. Ushbu 4 kishilik oilaning bir oylik iste‘moli 2538240 so‘m (84608*30) bo‘lishi lozim. Mazkur oila 1 oyda shundan ko‘p mablag‘ topsa, kambag‘allik chegarasidan chiqqan bo‘ladi.

Ushbu jamg‘armani shakllantirish uchun oilaning topgan daromadi (ish haqi, mulkni ishlatishdan olinadigan daromadlar kibi) xarajatlarini qoplab, ma‘lum miqdorda zaxiraga ham qoldiriladigan bo‘lashi lozim. Buni amalga oshirish uchun “Xotirjamlik jamg‘armasi”ni tashkil qilish modelidan foydalanishni tavsiya qilamiz. Bunda quyidagi ko‘rsatkichlar ishtiroq etadi.

Oila xo‘jaligining daromadlari (D). Bu ikkita elementdan tarkib topadi; ish haqi (Ih) va mulkni ishlatishdan oladigan daromadlar (Dm).

Oila xo‘jaligining xarajatlari va qoldiq summasi (Xq). Bu ham ikkita elementdan iborat: oila xarajatlari (Ox) va qoldiq (xotirjamlik jamg‘armasi) – (Xj).

Ushbu ko‘rsatkichlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq. Ushbu o‘zaro bog‘liqlik quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$Ih + Dm = Ox + Xj ; (4200 + 2100,0 = 4500 + 1800)$$

Ushbu formula orqali shu yerda keltirilgan har bir ko‘rsatkichni aniqlashimiz mumkin. Bu quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.

Oila daromadlari, xarajatlari va “Xotirjamlik jamg‘armasi”ning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash usullari

T/r	Daromadlari, xarajatlari va “Xotirjamlik jamg‘armasi”ning o‘zaro bog‘liqligi	Formulada ifodalanishi	Amaliy ma’lumotlardagi hisob-kitoblar
Birinchi yo‘nalish: ish haqi (Ih) miqdorining o‘zaro bog‘liqligi			
1.	Mulkni ishlatishdan oladigan daromadlar (Dm) bilan.	$Ih = Dm * (Ih / Dm)$	$4200,0 = 2100,0 * 4200,0 / 2100,0$
2.	Oilaviy xarajatlari (Ox) bilan	$Ih = Ox * (Ih / Xo)$	$4200,0 = 4500,0 * 4200,0 / 4500,0$
3.	To‘plangan “xotirjamlik jamg‘armasi” (Xj) bilan.	$Ih = Xj * (Ih / Xj)$	$4200,0 = 1800,0 * 4200,0 / 1800,0$
Ikkinchi yo‘nalish mulkni ishlatishdan oladigan daromad (Dm)ning o‘zaro bog‘liqligi			
1.	Ish haqi (Ih) miqdorining o‘zgarishi bilan	$Dm = Ih * (Dm / Ih)$	$2010,0 = 4200,0 * 2010,0 / 4200,0$
2.	Oilaviy xarajatlari (Ox) bilan	$Dm = Ox * (Dm / Ox)$	$2010,0 = 4500,0 * 2010,0 / 4500,0$
3.	To‘plangan “xotirjamlik jamg‘armasi” (Xj) bilan.	$Dm = Xj * (Dm / Xj)$	$2010,0 = 1800,0 * 2010,0 / 1800,0$
Uchinchi yo‘nalishi oila xarajatlarining (Xo) o‘zaro bog‘liqligi			
1.	Ish haqi (Ih) miqdorining o‘zgarishi bilan	$Ox = Ih * (Ox / Ih)$	$4500,0 = 4200,0 * 4500,0 / 4200,0$
2.	Mulkni ishlatishdan oladigan daromadlar (Dm) bilan.	$Ox = Dm * (Ox / Dm)$	$4500,0 = 2100,0 * 4500,0 / 2100,0$
3.	To‘plangan “xotirjamlik jamg‘armasi” (Xj) bilan.	$Ox = Xj * (Ox / Xj)$	$4500,0 = 1800,0 * 4500,0 / 1800,0$
To‘rtinchi yo‘nalish “Xotirjamlik jamg‘armasini”ning (Xj) o‘zaro bog‘liqliklari			
1.	Ish haqi (Ih) miqdorining o‘zgarishi bilan	$Xj = Ih * (Xj / Ih)$	$1800,0 = 4200,0 * 1800,0 / 4200,0$
2.	Oilaviy xarajatlari (Ox) bilan	$Xj = Ox * (Xj / Ox)$	$1800,0 = 4500,0 * 1800,0 / 4500,0$
3.	Mulkni ishlatishdan oladigan daromadlar (Dm) bilan.	$Xj = Dm * (Xj / Dm)$	$1800,0 = 2100,0 * 1800,0 / 2100,0$

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, oilaning oladigan ish haqi va mulkni ishlatishdan oladigan daromadlari, ularning xarajatlari va to‘playdigan “Xotirjamlik jamg‘armasi” bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar ekan. Ular bir-biriga bevosita ta’sir qiladi. Xarajat qilinmasa daromad bo‘lmaydi, daromad bo‘lmasa, qilingan xarajat qoplanmaydi va h.k. Kambag‘allikni qiqartirishda bularning birortasiga befarq bo‘lishligi mumkin emas. Hamisha ish haqi va boshqa daromadlarni ko‘paytirish bilan birga, oilaviy xarajatlarni tejamli ishlatib, tizimli ravishda “Xotirjamlik jamg‘armasini” ko‘paytirib borishga harakat qilib yashashi lozim.

Ushbu tavsiyalarimizning amaliyotga joriy qilinishi mamlkatimizda qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot va “O‘zbekiston - 2030” strategiyalarida ko‘zda tutilgan kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

